
Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan xabarga MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlar orqali joriy yilning 18-yanvar kuni “Og’ir sharoitda yashayotgan xalqqa “Yangi O‘zbekiston” degan shior juda kulgili eshitiladi” sarlavhasi ostida xabar tarqatildi.

Unda aytilishicha, “Qo’shtepa tumanida chiroq muttasil o’chmoqda. Xalq zulmatda o’tiribdi, amaldorlar esa yorug’ va issiq uylarda yashamoqda” – deya shikoyat qilingan.

Ushbu holat yuzasidan Qo’shtepa tumani elektr ta’minoti korxonasi tumanda chiroq muttasil o’chayotgani haqida yozilgan xabar bo’yicha quyidagilarni ma’lum qiladi:

2020 yilning 18-yanvar kuni xabar kim tomonidan e’lon qilingani va tumanning qaysi hududida chiroq muttasil o’chayotganini aniqlash imkoni bo’lmadi.

Tuman hududida GESlarimizda yoqilg’i yetishmayotganligi sababli bir necha kun mobaynida quvvat tanqisligi vaqtlarida sutka davomida 4-6 soatdan uzilishlar bo’lgan, hozirda ta’minotdagi uzilishlar vaqti keskin kamaygan.

2020-01-19 11:00:02